

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**OLIV O'QUV YURTLARI,
AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR
KOLLEJLARI BITIRUVCHILARI
UCHUN ISHLAB CHIQLGAN**

**BIZNES REJALAR
MAJMUASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GADAYSHAYEV M.A., OMONOV A.R.

**OLIV O'QUV YURTLARI,
AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR
KOLLEJLARI BITIRUVCHILARI UCHUN
ISHLAB CHIQILGAN
BIZNES REJALAR
MAJMUASI**

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashida muhokama etilib 2014 yil 26 dekabr 11-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

TERMIZ - 2015

OLIY O`QUV YURLARI, AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI BITIRUVCHILARI UCHUN ISHLAB CHIQLIGAN BIZNES REJALAR MAJMUASI

**Tuzuvchilar: GADAYSHAYEV M.A.
OMONOV A.R.**

Ushbu o`quv qo`llanma mamlakatimizda amalga oshirilayotgan va amalga oshirish uchun rejalashtirilayotgan davlat dasturlaridagi vazifalarni e`tiborga olib, oliy o`quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish kabi muammolarni hal qilish vazifalaridan ko`lib chiqqan holda universitetimizning moliya ta`dim yo`nalishining iqtidorli yoshlari ishtirokida ushbu o`biznes rejalari majmuasi o` amaliy-uslubiy, yordamchi qo`llanma sifatida tayyorlandi.

O`biznes rejalari majmuasi tarkibida bir necha turdagi faoliyat turlari (Internet va kompyuter xizmatini tashkil etish, tikuvchilik xizmatini tashkil etish, qishloq xo`jaligi mashinalariga texnik xizmat ko`rsatish, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, plastmassa mahsulotlarini qayta ishlash, makaron ishlab chiqarish, akfa va cheripitsa mahsulotlarini ishlab chiqarish, chorvachilikni tashkil etish, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish, parrandachilikni tashkil etish, non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish, issiqxona tashkil etish, o`quv markazi tashkil etish va shunga o`xshash bir qancha biznes rejalari) ni tashkil qilishga bag`ishlangan biznes rejalari o`rin olgan.

O`quv-uslubiy qo`llanma (amaliy-uslubiy, yordamchi qo`llanma) oliy o`quv yurti talabalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o`quvchilari hamda o`qituvchilarga mo`ljallangan bo`lib undan barcha darajadagi mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

O`biznes rejalari majmuasi Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Moliya ta`dim yo`nalishi talaba yoshlarining bu b radagi ilk urinishlaridan biri sifatida ayrim kamchilik va natijalardan hali bo`lmasligi mumkin. Shu sababli fikr-mulohaza va istaklaringizni Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Moliya ta`dim kafedrasiga manziliga jo`natishingiz mumkin (**Manzil:** *Termiz shahri, Navoiy ko`chasi, 42 uy, Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Moliya" kafedrasida*).

Ilmiy muharrir:

E.X.Avazov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

O.A.Ro`ziyev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

A.A.Avliyoqulov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

A.Mirzaev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

SO'Z BOSHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi har bir korxonalar ko'p sonli va turli muammolarga duch kelib, ulardan biri xo'jalik yuritish tizimida o'ziga munosib o'rin egallash hisoblanadi. Bu vazifani korxonalar (firma) o'z oldiga aniq va ravshan ishlab chiqarish g'oyasini: nimani, qachon va qancha ishlab chiqarishni belgilab qo'ygan holdagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Shu o'rinda mamlakatni modernizatsiyalash va texnik hamda texnologik qayta qurish jarayonlari kuchayotgan milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyotining huzuri boshqichida rasmiy mulkdarlarning sinfini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, kasanachilik ish o'rinlarini yaratish asosiy ahlining umumiy bandligini hamda turmush farqatuvchilarni shirish o'z yulini chimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Biznes rejada g'oyani rasmiy voqelikka aylantirish uchun u korxonalar mahsulotlari yoki xizmatlariga buyurtmalar olish tizimi bilan kuchaytirilishi lozim. Belgilangan ishlab chiqarish faoliyati barcha turdagi - moddiy, mahorat, moliyaviy resurslar, shuningdek, ishlab chiqarish quvvati bilan ta'minlanishi zarur. Bunda mahsulotni ishlab chiqarishgina emas, balki uning sotilishini ta'minlash, ya'ni sotuv kanallarini izlab topish ham muhim ahamiyat kasb etadi, korxonaning marketing strategiyasi hissasi katta bo'ladi.

Biznes rivojida yaqinida aytilgan va shu kabi boshqa vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. U bir tomondan korxonalar imkoniyatlarini aniq va to'g'ri baholashga imkon berib, boshqa tomondan muvaffaqiyatga va rivojlantirilgan ishning daromadlilikiga umid qilishga imkon beradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, puxta ishlab chiqilgan biznes rivojida raqobatbardoshlik sharoitlarida korxonalar ishlab chiqarish va moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlab, bozordan o'ziga munosib o'rin egallashga imkon yaratadi. Biznes rivojida moliyaviy mablag'larni asoslab beruvchi, umumlashtiruvchi hujjatlardan dastlabkisi bo'lib, mahsulotlarning rivojlantirilayotgan nom nomenclaturasi va ishlab chiqarish hajmi, sotuv bozori va xom-ashyo bazasi tavsifnomasi, ishlab chiqarishning yuridik, texnologik va mahorat resurslariga ehtiyojlari kabi ko'rib chiqilayotgan loyihaning tijorat va korxonalar (firma)ning iqtisodiy samaradorligiga doir tushunchalar beruvchi bir qator ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Praktikamiz I.A.Karimning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yili, fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000-yilga nisbatan 2 barobar ko'pdir.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi.

2014-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000-yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan yalpi ichki mahsulot hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning 190 ta davlati orasida 2010-yildagi 72-o'ringandan 66-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimiz 2014-yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish borasida esa 61 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi o'ninchi mamlakat qatoridan joy oldi.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi¹ - deb ta'kidlaganlar. Shu munosabat bilan o'tayotgan yillar mobaynida Prezidentimiz qarorlari asosida Davlat dasturlaridagi vazifalarni e'tiborga olib, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kullari bitiruvchilarini ishga joylashtirish kabi muammolarni hal qilish bo'yicha vazifalardan ko'rib chiqqan holda universitetimizning iqtidorli yoshlari tomonidan ushbu o'zbek biznes rjalar majmuasini talabalar, o'quvchilar va foydalanuvchilar uchun amaliy-uslubiy, yordamchi qo'llanma sifatida tayyorlandi.

O'zbek rjalar majmuasini tayyorlashda bilim va ko'nikma, tajriba darajalari, fikrlashi, dunyoqarashi didirasi turlicha bo'lgan talabalar ishtirok etdi va shu sababli biznes rjalar yagona asosida ishlab chiqilgan bo'lsada mazkur majmuani ichidagi biznes rjalarning mazmuni va mahiyati, tarkibiy tuzilishi rasmiylashtirilishi bo'yicha mutlaq haqiqatga da'vo qilmagan holda, biron tadbirkorlik faoliyatini yoki o'z biznesini tashkil etmochi bo'lgan yosh o'quvchi, talaba tadbirkorlar o'zlarining amaliy faoliyatida biznes rjalarini tuzishda namuna sifatida foydalanishlari mumkin degan umiddamiz.

2015 yilda barcha yangi ish boshlayotgan va mamlakatimiz tayanchi bo'lgan tadbirkorlar, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kullari bitiruvchi yoshlariga o'z bizneslarini tashkil qilib, buyuk ko'lajimiz sari dadil qadam tashlashlarida ulkan zafarlar va omadlar yor bo'lsin! deb qo'llaymiz.

*TerDU rektori, pedagogika fanlari doktori,
prof. M.E.Haydarov*

¹ "2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'jallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2015 yil 17 yabvar.

I. TADBIRKORLIK FAOLIYATI TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) o' tadbirkorlik faoliyati subʼektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati.

“**Biznes**” o' tijorat faoliyati bo'lib, inglizcha o'busyo o' band bo'ldmoq, ish berish ma'noalarida tushuniladi. Foyda olishga qaratilgan faoliyat.

Mashtabiga ko'ra biznes:

- global;
- katta;
- o'rt ;
- kichiklarga bo'ladini.

Yo'nalishi bo'yicha biznes:

- ishlab chiqarish;
- xizmat ko'rsatish;
- savdo;
- qishloq xo'jaligiga bo'lish mumkin.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagilar kiradi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlaridagi band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlaridagi band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

Quyidagi tarmoqlardagi:

- yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'ı-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasidagi band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohasidagi, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar.

Kichik tadbirkorlik subʼektlari xodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi. Bunda unitar (sho'ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlovchilarning soni ham hisobga olinadi.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (koʻp tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik oborot hajmida ulushi eng koʻp boʻlgan faoliyat turi mezonlari boʻyicha kichik tadbirkorlik subʼektlariga kiradi.

Kichik tadbirkorlik subʼektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar yuqorida sanab oʻtilgan tijorat tashkilotlariga ular tomonidan vakolatli tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlari, davlat statistika organlari, banklar va boshqalar) imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar hususiyatidan kelib chiqib, kichik tadbirkorlik subʼektlari ekanligi haqida xabarnoma taqdim etgan holda qilingan murojaatlar asosida beriladi. Xabarnomaning toʻgʻriligi uchun javobgarlik xabarnomani taqdim etgan subʼektlar zimmasiga yuklatiladi.

Mikrofirma va kichik korxonada xodimlarining belgilangan oʻrtacha yillik sonini oshirib yuborgan taqdirda, oshirib yuborishga yoʻl qoʻyilgan davr uchun va keying uch oyga ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlardan mahrum etiladi.

1.2. Tadbirkorlik faoliyatini davlat roʻyhatidan oʻtkazish tartibi

Kichik biznesni roʻyhatdan oʻtkazish bosqichlari:

- Biznes gʻoyani puxta tahlil qilish;
- Ish boshlash uchun kerak boʻladigan resurslarni aniqlash;
- Biznesni yuridik maqomini tanlash;
- Firmaga nom tanlash va statistika organlarida ushbu nomni tasdiqlatib olish;
- Firma pochta manzilini aniqlash;
- Hujjatlarni tayyorlash;
- Inspeksiyaga murojaat qilish;
- Yigʻim va toʻlovlarni toʻlash;
- Firma ish faoliyatini boshlash.

Yuridik maqom turlari:

Yakka tartibdagi tadbirkorlik

Yakka tartibdagi tadbirkorlik oʻ yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqsiz, mulk huquqi asosida oʻziga tegishli boʻlgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yoʻl qoʻyadigan oʻzga ashyoviy huquq tufayli oʻziga tegishli boʻlgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin oʻrtasidagi oʻzga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan boʻlmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'asis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'asis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'diq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'lda qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'danmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Xususiy korxonona

Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonona deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonona tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ldi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Xususiy korxonona o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Xususiy korxonona mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda xususiy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ldi.

Aksiyadorlik jamiyati

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi.

Aksiyadorlar jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'diq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'damagan aksiyadorlar aksiyadorlar jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'danmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlar jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Aksiyadorlar jamiyatining huquqiy mavqeyi hamda aksiyadorlarning huquq va burchlari Kodeks va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati

Ishtirokchilari o'zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz o'zga shaxslarga berilishi mumkin bo'lgan aksiyadorlar jamiyati ochiq aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi.

Bunday aksiyadorlar jamiyati o'zi chiqaradigan aksiyalarga qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan shartlar asosida ochiq obuna o'tkazishga va ularni erkin sotishga haqli.

Ochiq aksiyadorlar jamiyati har yili yillik hisobot, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobvarag'oni barchaning tanishib chiqishi uchun e'don qilishi shart.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati

Aksiyalari faqat o'zining muassislari orasida yoki oldindan belgilab qo'yiladigan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Bunday jamiyat o'zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoki ularni sotib olish uchun cheklanmagan doiradagi shaxslarga boshqacha tarzda tavsiya etishga haqli emas.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati ishtirokchilarining soni qonun bilan belgilab qo'yilgan miqdordan oshmasligi kerak. Bu son belgilangan miqdordan oshib ketgan holda u bir yil ichida ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tamom bo'lganidan keyin esa, agar aksiyadorlar soni belgilangan darajagacha kamaymasa, sud tartibida tugatilishi lozim.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'asis etilgan, ustav fondi ta'asis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat hisoblanadi.

Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkleri bilan qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'asis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiary javobgar bo'ladilar.

Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'asis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek qo'shimcha mas'uliyatli degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Sho'ba xo'jalik jamiyati

Agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeyiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi

Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishining asosiy sub'ektdir.

Dehqon xo'jaligi

Dehqon xo'jaligi ó bu ususiy mulkk asoslangan bo`lib, t gishli yer maydonida, il `z lari bilan hamk rlikda qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiq rib, il `z larining ehtiyojini q ndirish va yuqori daromad olishga intiluvchi, davlati va boshqa bozor sub` ktlari tomonidan t shqi ta`sirini s zuvchi bozor iqtisodiyoti sub` ktidir.

Ulgurji savdo bu ó pul ko'chirish yo`di bilan tijorat maqsadida yoki shaxsiy ishlab chiqarish, xo'jalik ehtiyojlari uchun mahsulotni sotib olish tushuniladi.

Ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish zarur. Ulgurji savdo bilan faqat yuridik shaxs maqomiga ega korxonalar shug'ullanishi mumkin.

Yuridik shaxs maqomiga ega shaxslar:

- O'zbekiston Respublikasi ulgurji savdo to'g'risidagi qonunlariga rioya qilsa;
- Nizom fondi shakllanganda eng kam oylik ish haqining 3500 borabaridan kam bo'lmagan, shundan 1200 barobari pul ko'rinishida;
- Sertifikat olish shart bo'lgan mahsulotlarni sertifikatlari bor bo'lganda ulgurji savdo bilan shug'ullanishlariga ruxsat beriladi.

Ulgurji savdo uchun litsenziya o'zi yashab turgab hudud hokimyati tomonidan beriladi.

Litsenziya cheklanmagan muddatga beriladi.

Litsenziya olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etish kerak bo'ladi:

- a) O'rnatilgan tartibda yozilgan ariza;
- b) Guvohnomani notarial tasdiqlangan nusxasi;
- c) Nizom fondi shakllanganligi haqidagi hujjatlar nusxasi;
- d) Litsenziya uchun to'danadigan to'dovlar xujjati.

Muddat 2 ish kunida qaror chiqariladi va bir kunda talabgorga xabar beriladi.

Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari

RO'YHATI

№	Faoliyat turning nomi
I	Chakana savdo:
1	Oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (o'simlik moyi, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlari sotishdan tashqari)
2	Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chakana sotish
3	Nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (neft mahsulotlarining barcha turlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni, audiovisual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan) dasturlarni, yangi import avtomobillar va farmasevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
3-1.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
4	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (turg'un shaxobchalarda aralash savdo qilish)
5	Tovarlarni import qilish va chakana sotish
II	Qonun hujjatlarida belgilangan ro'yhat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati
III	Maishiy xizmatlar, II bo'limda nazarda tutilganlaridan tashqari:
6	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga o'zshash boshqa xizmatlar
7	Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek dazmollash xizmatlari
8	Gilam va gilam buyumlarini ta'mirlash va tozalash
9	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini, to'qimachilik galantereyasidan tiklangan buyumlarni ta'mirlash va tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalari tikish, trikotaj buyumlarni to'qish.
10	Hayvonlar terilari, mo'yna, to'qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo'yash
11	Yakka buyurtmalar bo'yicha poyafvzal tayyorlash va tikish, poyafvalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
12	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash
13	Bijuteriya va jevablarni tayyorlash va ta'mirlash
14	Kalitlar tayyorlash
15	Metal va tunuka buyumlar tayyorlash va ta'mirlash
16	Motam gulchambarlari, sun'iy ranglar, girlyand tayyorlash
17	To'xiqlar, haykallar, metallardan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
18	Yog'ochdan (mebeldan tashqari) va alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash
19	Inventarni (xo'jalik, sport, baliqchilik va hokozo inventarlar) ta'mirlash va tayyorlash
20	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
21	Mebelni yig'ish va ta'mirlash
22	Musiqqa asboblarni ta'mirlash va sozlash
23	Yakka buyurtma bo'yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek zargarlik buyumlarini ta'mirlash
24	Potika, soatlarni ta'mirlash va o'ymakorlik ishlari
25	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va hisoblash texnikasini ta'mirlash, o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish
26	Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo'riqlash signallarini ta'mirlash va o'rnatish, yuvish, tekislash, kuzovga himoya va bezak

	qoplamlarni qoplash, salonni tozalash va shunga oʻxshash boshqa xizmatlar)
27	Sanitariya ó texnika xizmatlari va payvandlash ishlari
28	Shisha va oynalarni qirqish, shishaga badiiy ishlov berish
29	Binolarga oyna oʻrnatish xizmatlari
30	Jamoat hojatxonalari xizmatlari
31	Hammom va sauna xizmatlari
32	Turar joylarni yigʻishtirish xizmatlari
33	Hovlilar va bogʻdarga qarash xizmatlari, shuningdek koʻkalamzorlashtirish ishlari
34	Bogʻdar, polizlar va dov-daraxtlarni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish
35	Videoga olish va fotosuratga olish xizmatlari
35-1	Xoʻjalik mollari va uy-roʻzgʻor buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xoʻjalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
IV	Faoliyatining boshqa turlari:
36	Milliy shirinliklar, non-bulka va qandolatchilik mahsulotlari, pop-korn, frezerda muzqaymoq, salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda oʻtirish joylari tashkil etmasdan donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash
37	Oʻdchov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
38	Qurilish, taʼmirlash va bezash boʻyicha alohida ishlarni bajarish (capital qurilish, qurilish-montaj ishlari boʻyicha yuridik shaxslarga xizmat koʻrsatishdan tashqari)
39	Repetitorlik xizmatlari
40	Tarjimaxizmatlari, tahrir xizmatlari
41	Bolalarning oʻyinchoq avtomatlari bilan bogʻliq xizmatlar
42	Axborotning kriptografik himayasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, taʼmirlash va ulardan foydalanish
43	Dizayn boʻyicha xizmatlar (grafik, interyer, mebel va hokazolar), shuningdek chizmachilik ó grafika ishlari, shuningdek rassomchilik sanʼati
44	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter oʻyinlarini tashkil etish, shuningdek kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va koʻpaytirish bilan bogʻliq xizmatlar
45	Tashrif qogʻozlari va taklifnoma biletlarini tayyorlash va bosish
46	Muqovalash ishlari
47	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
48	Sugʻurta agentlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
50	Konsert ó tomosha faoliyatini amalga oshirish
51	Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (toʻy, yubiley, tugʻilgan kun va hokazolar)
52	Koʻylak va kostyumlarni, shuningdek ularga aksessuarlarni prokatga berish
53	Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)
54	Jismoniy tarbiya ó sogʻdomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
55	Toʻgʻaraklar tashkil etish va yuritish
56	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
57	Tegirmonlarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari
58	Mol soʻyish xizmatlari
59	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
60	Veterinariya faoliyati
61	Yuklarni avtomobil transportida tashish
62	Yodovchilar va yuklarni daryo transportida tashish
63	Oʻsimlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyoni yetishtirish, yigʻishtirish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish

64	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish
65	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni koʻpaytirish va sotish
66	Shisha idishlar va ikkilamchi xom ashyoni qabul qilish xizmatlari (metal chiqindilaridan tashqari)
67.	Rieltorlik faoliyati
68.	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus texnikadan (traktorlar, avtokranlar, buldozerlar, ekskavatorlar va boshqalardan) foydalangan holda xizmat koʻrsatish
69.	Ilmiyotadqiqot, tajribaokonstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi boʻyicha ishlarni bajarish
70.	Matritsali printerlar va alfavit-raqam yozadigan qurilmalar uchun boʻyovchi tasmalarni tayyorlash va qayta ishlash
71.	Qogʻozlar va skoroshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
72.	Telekommunikatsiyalar operatorlariga, provayderlariga vositachilik xizmatlari koʻrsatish (abonentlar yoki xizmatlar koʻrsatuvchilarga maʼlumot-axborot xizmati koʻrsatish, xizmat koʻrsatuvchilarning xizmati uchun toʻlovlarni qabul qilish)
73.	Tashkilotlar uchun qishloq xoʻjaligi mahsulotlari (xom sut, sabzavotlar, mevalar, asal, teri va moʻyna) tayyorlash boʻyicha xizmatlar
74.	Paxta (ilgari isteʼmolda boʻlgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari
75.	Ekskursiya xizmatlari koʻrsatish boʻyicha turizm faoliyati

**TERMIZ SHAHAR HOKIMI
XUZURIDAGI TADBIRKORLIK
SUB'YEKTLARINI RO'YHATDAN
O'TKAZISH INSPEKSIYASIDA
RO'YHATDAN O'TGAN**

**TERMIZ SHAHAR "TARAQQIYOT"
XUSUSIY KORXONASI
TA'SISCHILARINING UMUMIY TA'SIS
YIG'ILISHIDA TASDIQLANGAN**

№ _____ " ____ " _____ 201__ y.

№ _____ " ____ " _____ 201__ y.

"TARAQQIYOT" xususiy korxonasi

N I Z O M I

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1 Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida o'gi va korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar to'g'risidagi Qonun asosida ishlab chiqilgan.
- 1.2 O'TARAQQIYOT o' xususiy korxonasi O'zbekistonda amaldagi qonunlar va ustaviga asoslanib ish yuritib, davlat ro'yhatidan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi, xo'jalik hisobidagi korxonaga bo'lib o'zining muhri, bankdagi hisob raqamiga ega bo'ladi.
- 1.3 O'TARAQQIYOT o' xususiy korxonasi, to'diq xo'jalik hisobi asosida ish olib boradi, banklar, barcha turdagi korxonalar, firmalar, konsernlar va o'z mehnat jamoasi, shuningdek, fuqarolar bilan tuzilgan shartnomalarga to'diq javobgar hisoblanadi.
- 1.4 O'TARAQQIYOT o' xususiy korxonasining ta'isichisi bo'lib, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Mustaqillik ko'chasi 15-uyda istiqomat qiluvchi _____ hisoblanadi.
- 1.5 O'TARAQQIYOT o' xususiy korxonasining joylashgan manzili: Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Tarobiy ko'chasi 38-uy.

II. "TARAQQIYOT" XUSUSIY KORXONASINING MAQSAD VA FAOLIYATI

- 2.1 O'TARAQQIYOT o' xususiy korxonasi bozor munosabatlarini barqarorlashtirish, aholini sanoat mollariga nisbatan o'sib borayotgan talablarini qisman bo'sada qanoatlantirish maqsadida tashkil etilgan.
- 2.2 Korxonaga o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin:
 - barcha turdagi korxonalar, tashkilotlar va birlashmalar, firmalar, konsernlar, shuningdek, fuqarolar bilan shartnomalar, bitimlar asosida ish yuritish;
 - qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarini sotib olish, qayta ishlash va sotish;
 - umumiy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish;
 - sanoat mollarini va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, sotib olish va sotish;
 - tijorat va vositachilik faoliyati, barter va marketing, nou-hau bilan shug'ullanish;
 - imoratlar, asbob-anjimler, transport vositalaridan foydalanish, ularni ijaraga olish, sotib olish, sotish va ijaraga berish.

III. ISHNI BOSHQARISHNI TASHKIL QILISH STRUKTURASI

- 3.1 Korxonaga ishni boshqarish yakka xo'jalik prinsipi asosida amalga oshiriladi. Ishga qabul qilingan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi tadbiq qilinadi.
- 3.2 Xususiy korxonaga ish boshlashi uchun shu korxonaga joylashgan tuman (shahar) hokimiyati tomonidan Nizom (Ustav) ro'yhatga olish asos bo'ladi.

3.3 Xususiy korxonani uning direktori boshqaradi, davlat korxonasida, sud va arbitrajda va shaxsiy korxonalarda, xissadorlik jamiyatida, savdo birjalarida qonuniy vakil hisoblanadi. Shartnomalar tuzadi, banklarda hisob raqam ochadi, ishonchli vakillar tayinlaydi. Ishga qabul qiladi va boʻshatadi. Ragʻbatlantiradi va hayfsan eʼlon qiladi, kundalik ish tartibini belgilaydi. Korxonaning qonuniyligi uchun javob beradi. Xususiy korxonaning mehnat qonunchiligiga asoslangan holda ishchilarni ijtimoiy himoya qiladi.

IV. KORXONA MOL-MULKI

4.1 Korxonaning Ustav fondi 10.000.000 (oʻn million) soʻm miqdorida belgilanib, Nizom roʻyhatga olinib, bankda hisob raqami ochilgandan soʻng bir hafta muddat ichida bankka qoʻyiladi.

4.2 Xususiy korxonaning barcha mol-mulki taʼsis etuvchining mulki hisoblanadi, olingan foyda hisobidan korxonani Moliyaviy va xoʻjalik faoliyatini yuritishda, yaʼni jihozlar sotib olish huquqiga ega, yaʼni sotib olingan jihozlar korxonaning taʼsis mulkiga aylanadi.

4.3 Ish faoliyati davrida imoratlar, xonalar va jihozlar ijaraga olishga haqlidir.

4.4 Korxonaning xodimlari bilan kelishilgan holda ularning turar joyini, tomorqa yerini, shaxsiy transportlarini, jihoz va buyumlari shartnoma asosida ish faoliyat yurgʻazish uchun ishlatiladi va ishlatilganligi uchun xarajatlarini qoplaydi.

4.5 Xususiy korxonaning oʻz jihozlarini barcha turdagi yuridik shaxslar yoki fuqarolarga shartnomalar, bitimlar asosida ijaraga berishi mumkin.

V. “TARAQQIYOT” XUSUSIY KORXONASI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

5.1 “TARAQQIYOT” oʻz xususiy korxonasi ish faoliyati davrida quyidagi huquqlarga ega:

- bank muassasalarida oʻzining hisob-kitob raqamini ochish, bank kreditlaridan foydalanish, naqd pul bilan umumiy belgilangan tartibda operatsiya qilish;
- sud va arbitrajda davogar va javobgar sifatida qatnashish.

5.2 Korxonaning oʻz majburiyatlariga amaldagi qonunlar asosida javob beradi.

VI. XOʻJALIK FAOLIYATI

6.1 “TARAQQIYOT” oʻz xususiy korxonasi xoʻjalik faoliyatini mustaqil, aholining talab va takliflariga asosan yuritadi.

6.2 Korxonaning ish rejasini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

VII. MOLIYA VA KREDIT

7.1 “TARAQQIYOT” oʻz xususiy korxonasi foydasini ishlab chiqarishdan qilgan daromad va sotib olingan tovarni sotish uchun belgilangan ustama narx hosil qiladi.

7.2 Oʻzbekiston Respublikasida amaldagi qonunlar asosida korxonaning daromadidan soliq va boshqa majburiy toʻlovlari toʻlanadi.

Olinadigan va toʻlanadigan jarimalar transport xarajatlari chiqarib tashlanadi va oʻz foyda hosil qilinadi.

7.3 Sof foydadan isteʼmol fondi, amortizatsiya fondi va jamgʻarma fondi tashkil qilinadi.

7.4 Isteʼmol fondi ishchi va xizmatchilarga ish haqi toʻlashga sarflanadi.

7.5 Amortizatsiya fondi jihozlarni yangilashga, kapital taʼmirlashga va hokazolarga sarf qilinadi.

7.6 Jamgʻarma fondi ishlab chiqarishni kengaytirishga, qoʻshimcha tovarlar ishlab chiqishga sarflanadi.

7.7 Korxonaning oʻz ixtiyorida qolgan mablagʻlardan mustaqil foydalanadi.

VIII. XUSUSIY KORXONANING TUGATILISHI

8.1 **“TARAQQIYOT”** xususiy korxonasi tugatilishi O‘zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlarga asosan amalga oshiriladi.

8.2 **“TARAQQIYOT”** xususiy korxonasi tugatilishi barcha shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi. Barcha hisob-kitoblarni, qarzlarni to‘langandan so‘ng qolgan mol-mulk, pul mablag‘lari xususiy korxonaga egasining shaxsiy mulki sifatida qoladi.

“TARAQQIYOT” xususiy korxonasi

direktori _____

**TERMIZ SHAHAR HOKIMI
TADBIRKORLIK
SUB'YEKTLARINI RO'YHATDAN
O'TKAZISH INSPEKSIYASIDA
RO'YHATDAN O'TGAN**

HUZURIDAGI

№ ___ “ ___ ” _____ 201__y.

“SURXON” FERMER XO'JALIGI

U S T A V I

O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilik asosida tuzilgan va shu qonunchilik asosida faoliyat yuritadigan *o*NAMUNA*o* jamoa xo'jaligi qoshida *o*SURXON*o* fermer xo'jaligi *o*z faoliyatida quyidagilarga asoslanadi:

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1 Fermer xo'jaligi *o*z faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlar hamda ushbu Ustav daoirasida yuritadi.
- 1.2 Fermer xo'jaligi yuridik shaxs maqomini oladi, *o*z muhri, tamg'a belgisi, bankda hisob raqamiga ega bo'lgan, mulkchilik hususiy va xo'jalikni to'lda mustaqil yuritish bo'yicha *o*ziga qarashli ijaraga olingan mol-mulk, yer, suv va shu kabilardan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayriboshlash ishlarini bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, mulkchilikning barcha shaxslardan teng huquqli sharoitdan amaldagi qonunlarga muvofiq *o*z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt hisoblanadi.
- 1.3 Fermer xo'jaligi faoliyati maqsadlarini ro'yobga chiqarishda *o*z mahsulot va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda ana shu asosda *o*z jamoa a'zolarining barcha manfaatlarini ta'minlash yo'li bilan erishadi.
- 1.4 Fermer xo'jaligi qonunga hilof bo'lmagan har qanday turi bilan shug'ullana oladi.
- 1.5 Fermer xo'jaligi *o*z faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlar asosida tartibga solib turadi.

II. FERMER XO'JALIGINI TASHKIL ETISH VA RO'YHATDAN O'TKAZISH

- 2.1 Fermer xo'jaligi faoliyati ushbu Ustav ro'yhatga olingan kundan boshlanadi.

III. FERMER XO'JALIGINING HUQUQIY ASOSLARI

- 3.1 Fermer xo'jaligi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, mustaqil ravishda barcha turdagi qonunga hilof bo'lmagan shartnomalar tuzish, qonunda ko'rsatilgan va fermer xo'jaliklariga tegishli bo'lgan barcha huquqlardan foydalanish, sudda davogar yoki javobgar bo'lish hamda arbitraj xizmatidan foydalanish, davlat va hokimiyat idoralaridan qonuniy va huquqiy himoya so'rash huquqiga ega.
- 3.2 Fermer xo'jaligi *o*z a'zolarining qonuniy, huquqiy va insoniy huquqlarini kafolatlaydi va himayo qiladi.
- 3.3 Fermer xo'jaligi a'zolari:
 - mehnat erkinligi, mulk huquqi, dam olish va so'z erkinligi, *o*z mehnati natijasida egalik, jamoa mulkidan ulush olish huquqlariga ega.
 - Fermer xo'jaligiga erkin a'zo bo'lish va a'zolikdan chiqish, barcha turdagi sug'urtalardan foydalanish, fermer xo'jaligiga qarashli ijtimoiy sug'urta fondidan qarilik nafaqasi olish (nafaqalar va mehnat ta'tillari asosida), mehnat ta'tillari va ta'til uchun to'danadigan haq, kasallik uchun nafaqa olish huquqiga ega.
 - sudda davogar va javobgar bo'lishlari mumkin.

IV. FERMER XO'JALIGINING ASOSLARI

4.1 Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasining o'fermer xo'jaliklari to'g'risida o'gi, o'mulkchilik to'g'risida o'gi, Mehnat Kodeksi, Soliq Kodeksi va boshqa qonunlari asosida faoliyat yuritadi.

4.2 Fermer xo'jaligi o'z faoliyatini fermerlik asosida olib boradi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiradi, uni qayta ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, tovar ayriboshlash ishlari bilan shug'ullanish ko'zda tutilgan. O'zi yetishtirgan mahsulotlari sifatiga mustaqil javob beradi.

4.3 Fermer xo'jaligi o'z maqsadlarini amalga oshirish maqsadida barcha turdagi, ko'chma korxonalar ochish, sexlar qurish, boshqa tashkilotlarni ishga jalb qilish, kooperativlar va firmalar tashkil etish, dala shiyponlari, kichik korxonalar ochish, ichki va tashqi bozorlarda aloqalar o'rnatish huquqiga ega.

Fermer xo'jaligi tegishli hokimiyat hamda davlat idoralaridan belgilangan tartibda rivojlanishiga zarur bo'lgan qurilish ishlari va suv, gaz va elektr-energiya, yonilg'u mahsulotlariga limit oladi.

4.4 Fermer xo'jaligi barcha faoliyati davomida mustaqildir, o'z faoliyatini rejalashtirish hamda resurslar, ishlab chiqaradigan mahsulotlarga, bajariladigan xizmatga bo'lgan talablar asosida mahsulot yetishtirish, ish bajarish, xizmat ko'rsatishni hisobga olib o'z istiqbolini mustaqil belgilaydi.

4.5 Fermer xo'jaligi bozor talablarini o'rganish, narx-navo to'g'risidagi, monopoliyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlarining talablarini nazarda tutgan holda bevosita yoki bilvosita oldi-sotdini, mahsulot sotishni va o'zi ishlab chiqarishni mustaqil amalga oshiradi.

4.6 Tegishli davlat hokimiyati organlarining ruhsati bilan yer hududini kengaytirishi mumkin.

V. FERMER XO'JALIGIGA QABUL QILISH

5.1 Fermer xo'jaligiga a'zolar o'z arizalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi asosida qabul qilinadi.

5.2 A'zolarni qabul qilishda, fermer xo'jaligi bilan a'zolar o'rtasida mehnat shartnomasi tuziladi. Shartnoma tuzishda tomonlar teng huquqliligi ta'minlanadi.

VI. JAMOA A'ZOLARINING VAZIFALARI

6.1 Fermer xo'jaligi a'zolari jamoa mulkini asrab-avaylab va ko'paytirishlari mumkin.

6.2 A'zolar rahbarlarning barcha topshiriqlarini bajarishlari shart.

6.3 A'zolar ish bajarayotganda xizmat ko'rsatgan va umumiy mehnat faoliyati davomida tezlik, ehtiyot choralariga e'tibor berishlari kerak.

VII. FERMER XO'JALIGINING ICHKI VA TASHQI MUNOSABATLARI

7.1 Ichki munosabatlar a'zolar o'zaro umumiylikda bir-birining insoniy, qonuniy huquqlarini, qadr-qimmatlariga nisbatan hurmatda bo'lish, amaldagi qonunlarga hurmatda bo'lishlari kerak.

7.2 Fermer xo'jaligi barcha turdagi aloqalar va munosabatlarda qonuniylik, teng huquqlilik, sherikchilikning qonuniy, iqtisodiy tenglik prinsiplariga asoslanib ish yuritish majburiyatini oladi.

7.3 Shartnoma asosida Fermer xo'jaligi davlat buyurtmasini olish va davlat ehtiyojlari uchun xizmat qilishi mumkin. Bunday hollarda davlat moddiy-texnik resurslar bilan to'la ta'minlaydi.

VIII. FERMER XO'JALIGI MOL-MULKI

8.1 Fermer xo'jaligini ta'asis etuvchilar fermer xo'jaligining barcha mol-mulki egasi hisoblanadi.

8.2 Fermer xo'jaligini faoliyati natijasida vujudga kelgan barcha mablag' va mol-mulklar fermer xo'jaligi mulki hisoblanadi.

8.3 Fermer xo'jaligi va uning a'zolarining barcha mulkiy huquqlari O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari bilan himoyalanaadi va bu huquqlarni davlat kafolatlaydi.

IX. FERMER XO'JALIGI BOSHQARUVI

9.1 Fermer xo'jaligini oliy boshqaruvchi ta'asischilarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi, umumiy yig'ilish fermer xo'jaligi raisini saylaydi.

9.2 Umumiy yig'ilish fermer xo'jaligining faoliyatini boshqaruv qarorlarini chiqaradi, shartnomalar tasdiqlaydi, mojarolarni, arzlarni, oylik maosh va shu kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

9.3 Fermer xo'jaligi raisi xo'jalik faoliyatini boshqaradi: barcha shartnomalarni tuzadi, ishga qabul qiladi yoki bo'shatadi, mehnat intizomini, o'g'atilik va mehnatsiz daromadga, daromadsiz sarf-xarajatga qarshi kurashadi, resurslarni tejash, ishlab chiqarish va shu kabilar nazorat qiladi. Sudda davo qiladi yoki javob beradi. Kadrlarni tanlash va undan foydalanish, barcha turdagi qonuniy bo'lgan Moliyaviy ishlarni amalga oshirish, aktlarni va hujjatlarni imzolash, ehtiyojlarni qondirish va xo'jalik ta'minoti bilan shug'ullanish va shu kabilar raisning vazifasidir.

Umumiy yig'ilish zaruratiga qarab va amalda bir hisobot yig'ilishini hamda uch yilda bir hisobot saylov yig'ilishi chaqiriladi. Rais umumiy yig'ilish tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

X. FERMER XO'JALIGI MABLAG'I, HISOBOT TO'LOVLARI

10.1 Fermer xo'jaligi mablag'i yillik daromadidan kelib chiqib quyidagilarga bo'linadi: oylik maosh, mablag'

10.2 Fermer xo'jaligi statistik hisobot va buxgalteriya hisobini yuritadi hamda tegishli davlat organlariga hisobot berib boradi.

10.3 Fermer xo'jaligi o'z mablag'i hisobidan davlat byudjetiga soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lab boradi. Soliq va majburiy to'lovlardan keyin ixtiyorida qolgan mablag'dan foydalanadi.

10.4 Fermer xo'jaligi ixtiyorida qolgan mablag' ish haqi, ishchilarni moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy himoya va xo'jalik faoliyatini rivojlantirishga sarflanadi.

XI. FERMER XO'JALIGINI TUGATISH

11.1 Fermer xo'jaligini O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlarga asosan sud, xo'jalik sudi, ta'asis etuvchi ishlar va tegishli davlat organlarining qarorlariga binoan tugatiladi.

11.2 Tugatish ishlarini tugatish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

11.3 Xo'jalik tugatilayotganda uning mablag'i soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga ishlatiladi. Undan keyin qolgan mablag' fermer xo'jaligi ta'asischilari o'rtasida ularning ulushlariga qarab taqsimlanadi.

Fermer xo'jaligi raisi

(NAMUNA)

**Ta'asischilarning umumiy
yig'ilishi tomonidan
"TASDIQLANGAN"**

20__ yil "____" _____

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

NIZOMI

Jamiyatning manzilgohi:

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyatini _____ shahar hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yhatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 20__ yil ____ _____dagi _____ reestr raqami bilan Davlat ro'yhatiga olingan. Keyinchalik, 20__ yil ____ _____dagi ta'asischilarning majlis bayonnomasiga asosan jamiyatning yangi tahrirdagi Nizomi qabul qilingan. _____ ta'asischilarning majlis bayonnomasiga asosan jamiyatning yangi tahrirdagi Nizomi qabul qilingan Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyati va Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyatining 20__ yil ____ _____dagi umumiy yig'ilishida Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyati Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qo'shib, _____ ta'asischilari deb belgilanib, yangi tahrirdagi Nizomi qabul qilindi.

1.2. Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyati va Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyati barcha kreditorlari va debitorlari bo'yicha, shu jumladan taraflar baxslashayotgan majburiyatlari bo'yicha ham huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.3 Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining ÖMas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risidaögi Qonuni bo'yicha amalga oshiradi.

1.4. Davlat, uning organlari va tashkilotlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar emas, hamda davlatning majburiyatlari yuzasidan ham, jamiyat javobgar hisoblanmaydi.

1.5. Jamiyat o'z ishchilar va xodimlari olgan majburiyatlariga nisbatan javobgar emas, shuningdek xodimlar ham jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanmaydilar, mehnat shartnomalari va ish yuzasidan tuziladigan boshqa shartnomalar bundan mustasnodir.

1.6. Jamiyatning yo'nalish faoliyati va qatnashchilarning soni tartibga solinmaydi va uning faoliyati davomida o'zgarishi mumkin.

1.7. Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyatining ta'asischilari:

1. _____ pasport seriyasi: _____, _____ tumani (shahar) IIB tomonidan _____ yilda berilgan. Pasport bo'yicha yashash joyi _____ shahar _____.

2. _____ pasport seriyasi: _____, _____ tumani (shahar) IIB tomonidan _____ yilda berilgan. Pasport bo'yicha yashash joyi _____ shahar _____.

II. JAMIYATNING TO'LIQ NOMI

2.1. Davlat tilida Ö _____ ö mas'uliyati cheklangan jamiyati

2.2. Rus tilida: Ob es _____ Ö _____ ö.

III. JAMIYATNING QISQACHA NOMI

3.1. Davlat tilida: Ö _____ ö MCHJ

3.2. Rus tilida: ООО Ö _____ ö

IV. JAMIYATNING MANZILGOHI

4.1. _____ shahar _____.

V. JAMIYATNING FAOLIYAT TURLARI

5.1. Jamiyatning asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi va quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- Ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanish;

- Chakana savdo faoliyati bilan shugullanish;
- Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish;
- Oziq-ovqat mahsulotlarini sotish;
- Santexnik xizmati ko'rsatish;
- Qurilish faoliyati bilan shugullanish;
- Qurilish montaj, ta'mirlash, pardoqlash faoliyati;
- Qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish;
- Temir konstruksiyalarini ishlab chiqarish va sotish;
- Har xil yo'l va karerlar ochish;
- Har xil yo'l va karer (traktor, ekskavator va buldozer) uskunalarini ta'mirlash, montaj va o'rnatish faoliyati;
- Kompessor uskunalarini ta'mirlash faoliyati;
- Barcha turdagi va toifadagi avtomobil yo'llarini loyihalash va qurish;
- Avtobekatlarni loyihalash;
- Ko'priklarni loyihalash;
- Muxandislik qidiruv ishlarini bajarish;
- Aholiga va korxonalariga pullik xizmat ko'rsatish (transport, qurilish, ta'mirlash, maishiy va boshqa xizmatlar);
- Aholiga va korxonalariga transport xizmatini tashkil qilish (traktor, ekskavator va avtobus) va ijaraga berish;
- Aholiga turli xildagi maishiy xizmat ko'rsatish;
- Avtomobillar va ularga tegishli avto ehtiyot qismlar keltirib sotish;
- Aholiga transport xizmatini tashkil qilish va ijaraga berish;
- Aholi transportiga pullik to'xtash va saqlash joylarini joriy etish;
- Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;
- Avtomobillarga yoqilg'u quyish shaxobchalarini ochish;
- Avtomobillarni yuvish shaxobchalarini ochish;
- Avtomobillarga moy almashtirish;
- Kompyuter texnologiyalari va texnikasi sotish, o'rnatish va remont qilish;
- Kompyuter xonalari va internet kafelar ochish;
- Kompyuter savodxonligi, internet kurslarini tashkil qilish;
- Konsalting xizmatlari ko'rsatish, shu jumladan mulkni baholash, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlariga ko'maklashish, ko'chmas mulk ob'ektlari bilan o'pretsiyalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish sarmoyalarni jalb qilish, marketing tadqiqotlari o'tkazish, boshqaruv maslahatlari, biznes reja, TIA va strategik rejalar tayyorlash, kichik va o'rta tadbirkorlarni rivojlantirish;
- Xalq iste'mol mollari va ishlab chiqaradi, ishlatilgan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Vositachilik savdo faoliyati bilan shugullanish;
- Umumiy ovqatlanish inshootlari, oshxona, kafe, bar va restoranlar ochish;
- Ip-gazlama ishlab chiqarish sanoati;
- Issiqxonalar ochish faoliyati;
- Turli xildagi teri mahsulotlarini qayta ishlash;
- Mebel jixozlari ishlab chiqarish va sotish;
- To'qimachilik, tikuvchilik mahsulotlarining eksporti;
- Tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- Lak-bo'yoq mahsulotlari ishlab chiqarish, barcha turdagi chiqindilardan sanoat xom-ashyolari ikkilamchi resurslar ishlab chiqarish;
- Maishiy xizmat ko'rsatish;
- Reklama va poligrafiya xizmatini tashkil etish;

- Mulk, asosiy vositalar va uskunalarni sotish va ijaraga berish;
- Turizm faoliyati va mehmonxona xizmatini tashkil etish;
- Axborot-maʼlumot xizmatlarini koʻrsatish;
- Tikuvchilik, patduzlik, zarduzlik va bichish-tikish sexlarini ochib, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish;
- Oyoq kiyimi va maxsus kiyimlar tikish va sotish;
- Kiyim-kechaklarni qayta taʼmirlash;
- Elektr jixozlarini taʼmirlash va montaj qilish;
- Dorixonona tashkil qilish;
- Dori-darmon sotib olish va sotish;
- Dori-darmonlar tayyorlash va sotish;
- Tibbiy xizmat koʻrsatish;
- Stomatologiya faoliyati;
- Turistlarni qabul qilish, turistlarga xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq barcha turistik xizmatlarni tashkil qilish, chet elga turistik sayohatlarga yuborish;
- Chet el sayohlariga oʻz mahsulotlarini reklama qilish va sotish;
- Chet ellar bilan oʻzaro savdo aloqalarini amalga oshirish;
- Chet el mamlakatlari bilan qoʻshma korxonalar tuzish;
- Chet el fuqarolari va turistlarga turli xildagi transport xizmatlari koʻrsatish;
- Chet ellik hamkorlar bilan birga turli konferensiyalar, seminarlar, treninglar, qoʻshma yarmarkalar, koʻrgazmalar tashkil etish;
- Chet el texnologiyasini kiritish;
- Turistlarga tarjimonlik xizmatlari koʻrsatish;
- Bino va inshootlarni ijaraga berish;
- Koʻchmas mulk savdolarini amalga oshirish;
- Poligrafik mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish;
- Yogʻoch mahsulotlarini qayta ishlash va duradgorlik mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- Muzqaymoq ishlab chiqarish va sotish;
- Barcha turdagi metallarini payvandlash va ulardan har xil jixozlar yasash;
- Yogʻoch va yogʻoch materiallardan jixozlar yasash;
- Dillerlik xizmatini amalga oshirish;
- Amaldagi qonunchilikka muvofiq korxonalariga berilgan boshqa huquqlardan foydalaniladi.

5.2. Jamiyat xoʻjalik faoliyatining har qanday turlarini, agar ular qonun hujjatlarida taʼqiqlab qoʻyilgan boʻlmasa va jamiyat Nizomida koʻzda tutilgan maqsadlar va vazifalariga muvofiq kelsa, amalga oshirish huquqiga ega.

5.3. Baʼzi bir faoliyat turlarini amalga oshirish uchun Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida maxsus ruxsatnoma (litsenziya) orqali amalga oshirish talab etilgan taqdirda, jamiyat maxsus ruxsatnomasi mavjud boʻlgandagina shugʻullanishi mumkin.

VI. JAMIYAT ORGANLARINIG TARKIBI VA VAKOLATLARI

6.1. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yigʻilishi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi.

6.2. Jamiyat ishtirokchisi umumiy yigʻilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining asosiy yoʻnalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtiroki toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- Jamiyat Nizom fondining (Nizom kapitalining) miqdorini oʻzgartirish;
- Taʼsis hujjatlariga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish;
- Jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- Jamiyatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish, uni saylash va uning vakolatlarini muddatdan ilgari tugatish;
- Yillik hisoblarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;
- Jamiyatning sof foydasini jamiyat ishtirokchilari oʻrtasida taqsimlash toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- Jamiyat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);
- Jamiyat tomonidan obligatsiyalarni joylashtirish toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- Auditorlik tekshiruvini oʻtkazish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga toʻlanadigan haqning miqdorini aniqlash;
- Boshqa yuridik shaxslar bilan vakolatxonalar va filiallarni tuzish toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning hayriya qilish masalalarini koʻrib chiqib qaror qabul qilish;
- Jamiyatning avtomobil vositalarini, asbob uskuna va ularni sotish toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- Tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Boshqa masalalarni hal qilish.

6.3. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosida ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor) hisoblanadi. Direktor jamiyat ishtirokchilarining umumiy yigʻilishi tomonidan bir yilga shartnoma asosida tasdiqlanadi. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi direktori uning ishtirokchisi boʻlmagan shaxs orasidan ham saylanishi mumkin. Jamiyatning ijro etuvchi organiga faqat jismoniy shaxs saylanadi.

6.3. Qarorlar qabul qilish tartibi jamiyatning hujjatlari bilan, shuningdek jamiyat va uning ijro etuvchi organi direktor vazifasini amalga oshiruvchi shaxs oʻrtasida tuzilgan shartnoma bilan belgilanadi.

6.4. Jamiyat va uning ijro etuvchi organi direktori vazifasini amalga oshiruvchi shaxs oʻrtasida shartnoma, jamiyat nomidan jamiyatning ijro etuvchi organi vazifasini amalga oshiruvchi shaxs saylangan umumiy yigʻilishdagi raislik qiluvchi shaxs tomonidan yoki jamiyat ishtirokchisi umumiy yigʻilishining qarori bilan vakolat berilgan jamiyat ishtirokchisi tomonidan imzolaniadi.

6.5. Jamiyatning ijro etuvchi organi direktori:

- Jamiyat tomonidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;
- Jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan ragʻbatlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qoʻllaydi;
- Jamiyatning Nizomi bilan jamiyat ishtirokchisining umumiy yigʻilishi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

VII. JAMIYAT ORGANLARI TOMONIDAN QARORLAR QABUL QILISH TARTIBI

7.1. Jamiyat ishtirokchisining navbatdagi umumiy yigʻilishi yiliga kamida bir marta oʻtkaziladi.

7.2. Jamiyat ishtirokchisining navbatdagi umumiy yigʻilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan chaqiriladi.

7.3. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yigʻilishi moliya yili tugaganidan keyin mart oyining 10 kunida oʻtkaziladi.

7.4. Jamiyatning ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yigʻilishni oʻtkazishni jamiyatning va uning ishtirokchisining manfaatlarini taqozo etsa, boshqa hollarda ham oʻtkaziladi.

7.5. Jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan:

- jamiyat ishtirokchisi umumiy ovozlari sonining kamida undan biriga ega bo'lgan jamiyat ishtirokchisining;

- jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) talabiga binoan chaqiriladi;

- jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi zarur hollarda jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan uning tashabbusiga binoan chaqirishi mumkin.

7.6. Jamiyatning ijro etuvchi direktori jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talab olingan sanadan e'tiboran, uch kun ichida mazkur talabni ko'rib chiqish va jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yoki uni o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

7.7. Jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror jamiyatning ijro etuvchi direktori tomonidan faqat quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

- agar jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabni taqdim etishning tartibiga rioya etilgan bo'lmasa;

- agar jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masalalardan birortasi ham uning vakolatlari jumlasiga kirmasa.

7.8. Jamiyatning ijro etuvchi direktori jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalar tartibiga o'zgartirishlar kiritishga, shuningdek jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishning taklif qilingan shaklini o'zgartirishga haqli.

7.9. Jamiyat ishtirokchisi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masalalar bilan bir qatorda, jamiyatning ijro etuvchi direktori o'z tashabbusi bilan unga, kun tartibi rasmiy ravishda o'qib eshittiriladigan kundan kechiktirmay, qo'shimcha masalalar kiritishga haqlidir.

7.10. Jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bunday umumiy yig'ilish uni o'tkazish to'g'risidagi talabnoma olingan kundan e'tiboran qirq besh kundan kechiktirmay o'tkaziladi.

Agar muddat ichida jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki uni o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, jamiyat ishtirokchisining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni o'tkazishni talab qilayotgan organlar yoki shaxslar tomonidan chaqirish mumkin. Bunday holda jamiyatning ijro etuvchi direktori mazkur organlar yoki shaxslarga jamiyat ishtirokchisining manzillari ko'rsatilgan ro'yxatni taqdim etadi. Umumiy yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish uchun chaqirish va o'tkazish xarajatlari jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining qaroriga binoan jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

VIII. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING UMUMIY YIG'ILISHINI CHAQIRISH TARTIBI

8.1. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini o'tkazish ijro etuvchi organ direktori kamida o'ttiz kun oldin bu haqda jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat ishtirokchisining ro'yxatida ko'rsatilgan manzil bo'yicha buyurtma xat bilan xabardor qiladi.

8.2. Jamiyatning istalgan ishtirokchisi jamiyat ishtirokchisi jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining kun tartibiga qo'shimcha masalalarni kiritish to'g'risida uni o'tkazishdan kamida 15 kun oldin takliflar kiritishga haqlidir. Qo'shimcha masalalar, jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining vakolatlari jumlasiga kirmaydigan masalalarni istisno etganda, jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritiladi.

8.3. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini chaqiruvchi shaxs jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan qo'shimcha masalalar ta'rifiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emaslar.

Agar ishtirokchining taklifiga binoan jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining dastlabki kun tartibiga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa, jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini chaqiruvchi shaxs umumiy yig'ilish o'tkaziladigan kundan kamida 10 kun oldin 8.1. bandida ko'rsatilgan usulda kun tartibiga kiritilgan o'zgartirishlar haqida jamiyatning barcha ishtirokchisini xabardor qiladi.

8.4. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish chog'ida jamiyat ishtirokchilariga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot va materiallar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning yillik hisoboti;
- Jamiyatning yillik hisobotlari va yillik buxgalteriya balanslarini tekshirish natijalari bo'yicha jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosasi;
- Moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risidagi auditorlik xulosasi;
- Jamiyatning ijro etuvchi organlariga va jamiyatning taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) nomzod (nomzodlar) to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Boshqa axborot va materiallar.

8.5. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini chaqiruvchi shaxs ularga axborot va materiallarni jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarnoma bilan birgalikda yuborishi shart, kun tartibi o'zgartirilgan tartibda, tegishli axborot va materiallar ana shunday o'zgartirish to'g'risidagi xabarnoma bilan birgalikda yuboriladi. Ko'rsatilgan axborot va materiallar jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishi o'tkazilishidan oldin 30 kun mobaynida jamiyat ijro etuvchi organining binosida tanishish uchun jamiyatning barcha ishtirokchilariga taqdim etilishi kerak.

8.6. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini chaqirishning tartibi buzilgan tartibda agar bunday umumiy yig'ilishda jamiyatning barcha ishtirokchisi ishtirok etayotgan bo'lsa, u vakolatli deb e'tirof etiladi.

IX. JAMIYATNING UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH TARTIBI

9.1. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishida ishtirokchi shaxsan yoki o'z vakillari orqali ishtirok etishga haqlidirlar. Jamiyat ishtirokchisining vakillari o'z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni (ishonchnomani) ko'rsatishlari lozim.

9.2. Jamiyatning ishtirokchisi yoki ularning vakillari kun tartibidagi masalarni muhokama qilishda ishtirok etish va qarorlarni qabul qilishda ovoz berish huquqiga egadirlar .

9.3. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishida jamiyatning Nizom fondidagi (Nizom kapitalidagi) o'z ulushiga munosib ovozlar soniga ega bo'ladi.

9.4. Jamiyatning ro'yhatdan o'tmagan ishtirokchisi (jamiyat ishtirokchisining vakili) ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas.

9.5. Jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishi jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan vaqtda agar jamiyatning barcha ishtirokchisi ro'yhatdan o'tib bo'lgan bo'lsa, oldinroq ochiladi.

9.6. Ta'assisining 70 foizidan ko'prog'i ovoz berganda jamiyat qarorlari qabul qilinadi.

9.7. Jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

9.8. Jamiyatning ijro etuvchi organi jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining bayonnomasi yuritilishini tashkil etadi.

X. JAMIYATNING UMUMIY YIG'ILISH BAYONNOMASI

10.1. Jamiyatning umumiy yig'ilish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- jamiyatning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan vaqti va joyi;
- yig'ilishda qatnashayotgan ishtirok etuvchilar ega bo'lgan ovozlarining umumiy soni;
- yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilishining kun tartibi.

- 10.2. Jamiyat umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan va ular bo'yicha ovoz berish yakunlari, yig'ilishda qabul qilingan qarorlar aks ettiriladi.
- 10.3. Jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilgandan so'ng uch kundan kechiktirmay umumiy yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

XI. JAMIYATNING NIZOM JAMGARMASI

- 11.1. Jamiyatning Nizom fondini ko'paytirish uning mol-mulk hisobidan va (yoki) ta'asischisi tomonidan qo'shimcha badallar kiritish va (yoki) jamiyatga kiradigan shaxslar tomonidan badallar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 11.2. Jamiyatning Nizom hisobida bo'lgan fondini kamaytirish ulushlarni nominal narxini kamaytirish va (yoki) ulushlarni hisobdan chiqarish bilan amalga oshiriladi.
- 11.3. Jamiyat o'z Nizom fondini qonun tomonidan o'rnatilgan minimal miqdoridagi Nizom fondidan kamaytirishi mumkin emas.
- 11.4. Ta'asischisining umumiy yig'ilishi Nizom fondini kamaytirish to'g'risidagi qaror qabul qilishida, uni sababi va tartibini ham belgilab o'tadi.
- 11.5. Nizom fondini kamaytirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan 30 kundan kechiktirmasdan jamiyat o'z kreditorlariga yozma ravishda va matbuotda ma'dumot beradi. Kreditorlar o'z navbatida yozma ma'dumot yuborilgan kundan 30 kun ichida jamiyatdan muddatdan oldin majburiyatlarini bajarilishi yoki ko'rilidigan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.
- 11.6. Jamiyatning Nizom fondini ko'paytirish va Nizomga tegishli o'zgarishlar kiritish ta'asischining umumiy yig'ilishi tomonidan bajariladi.

XII. JAMIYATNING ZAXIRA VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL QILISH TARTIBI

- 12.1. Jamiyatning zaxira fondi Nizom fondining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorida tashkil qilinadi. Jamiyat zaxira fondi har yilgi sof daromaddan ajratma o'tkazish yo'li bilan shakllanadi. Bu har yilgi ajratmaning miqdori sof daromadning 5 foizidan kam bo'lmashligi shart.
- 12.2. Jamiyat zaxira fondidan faqat zararlarni qoplash uchun, ta'asischi talabiga binoan, qonunga muvofiq ulushlarni sotib olish uchun foydalaniladi. Zaxira fondidan boshqa xil maqsadlarda foydalanish mumkin emas.
- 12.3. Sof daromadning 50 foizidan oshmagan miqdorda shakllangan har yilgi ajratmadan, jamiyat ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanish fondini yaratadi.

XIII. JAMIYATNING MULKI

- 13.1. Jamiyatning mol-mulki ta'asischi mulki bo'lib hisoblanadi va jamiyat xo'jaligini to'liq olib borish uchun ishlatiladi.
- 13.2. Jamiyatning mol-mulki quyidagicha shakllanadi:
- ta'asischi kiritgan Nizom fondidan;
 - Nizomda ko'rsatilgan, xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'dan;
 - qonunda zid bo'lmagan jamiyat va tadbirkorlar badallari va boshqa xil tushumlar hisobidan.

XIV. JAMIYATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 14.1 Jamiyat ishtirokchisi quyidagilarga haqlidirlar:
- jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;
 - jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;
 - foydani taqsimlashda ishtirok etish;

- jamiyatning Nizom fondidagi (Nizom kapitalidagi) o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonunda va jamiyatning Nizomida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasidan voz kechish;

- boshqa ishtirokchisining roziligidan qat'iy nazar Qonunda va jamiyatning Nizomida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish;

- jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

- jami ulushlari jamiyat Nizom fondining (Nizom kapitalining) kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchisi o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchisini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar.

Jamiyat ishtirokchisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

14.2. Jamiyat ishtirokchisi ta'xis shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlari:

- jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart;

- jamiyat ishtirokchisining qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'xis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

XV. JAMIYAT TA'ISCHISINING ULUSHI (ULUSHNING BIR QISMI), JAMIYAT NIZOM FONDIGA UCHINCHI SHAXSGA O'TISH

15.1. Ta'xischi boshqa ta'xischisining roziligi bilan o'z ulushlarini (ulushning bir qismi) bir yoki bir nechta uchinchi shaxslarga berishi mumkin. Bu o'rinda jamiyatning ta'xischisi birinchi bo'lib sotib olish huquqiga ega.

15.2. O'z ulushini (ulushning bir qismi) uchinchi shaxsga sotmoqchi bo'lgan jamiyatning ta'xischisi, jamiyatning boshqa ta'xischisi jamiyat orqali va jamiyatni yozma ravishda sotish narxi va boshqa shartlari haqida bildirishi shart.

15.3. Ulushlarini boshqa shaxsga o'tkazish, faqat ta'xischi o'z badalini to'liq o'tkazgandan keyin amalga oshiriladi, jamiyat tarkibidan chiqayotgan ta'xischi o'z ulushlari bilan huquq va majburiyatlarini ham shu shaxsga topshiradi.

15.4. Ulushlar jamiyatning o'zi tomonidan ham sotib olininishi mumkin. Bu holda uni bekor qilishi yoki bir yil muddat davomida uchinchi shaxslarga sotishi lozim.

XVI. JAMIYATNING YILLIK HISOBOTLARINI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI

16.1. Jamiyat buxgalterlik hisobotini olib boradi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda statistik hisobotlarini taqdim etadi.

16.2. Qonunchilikka muvofiq buxgalteriya hisobining tashkil qilinishini, uning xolati va haqqoniyligi, yillik hisobotining o'z vaqtida taqdim etilishi va boshqa moliyaviy hisobotlarni kerakli organlarga va kreditorlarga o'z vaqtida taqdim qilish ijro organlarining javobgarligiga yuklatiladi.

16.3. Yillik hisobot ta'xischisining umumiy yig'ilishi bilan tasdiqlanishi lozim.

XVIII. JAMIYAT HUJJATLARINI SAQLASH VA TAQDIM ETISH TO'G'RSIDA MA'LUMOTLAR

17.1. Jamiyat, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa quyidagi hujjatlarini o'z faoliyati davomida, belgilangan muddat mobaynida saqlashi shart:

- Jamiyatning ta'xis hujjatlari va ularga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar, shuningdek ularni belgilangan tartibda davlat ro'yhatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar;

- Jamiyatning ta'asischisining majlis bayonnomasi tashkil qilinganligi to'g'risidagi qaror, mablag÷ va nomablag÷ Nizom fondi (Nizom kapitali) tasdiqlanganini to'g'risidagi hujjat. Shuningdek, jamiyatning tuzilishi bilan bog'liq boshqa hujjatlar;
 - Jamiyatning davlat ro'yhatidan o'tkazilganligi to'g'risida tasdiqlovchi hujjat;
 - Jamiyatning balansida bo'lgan mol-mulka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat;
 - Jamiyatning filial va vakolatxonalari to'g'risidagi Nizom;
 - Jamiyatning obligatsiyalarini chiqarish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar;
 - Jamiyat ta'asischisining umumiy yig'ilishi va ijro etuvchi organi va taftish komissiyasining bayonnomalari;
 - Boshqa qonunda nazarda tutilgan hujjatlar;
- Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni ijro organi joylashgan yoki boshqa jamiyat ta'asischisi ma'dum bo'lgan joylarda saqlaydi.

XVIII. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

- 18.1. Jamiyat o'z filiallarini tashkil qilish va vakolatxonalarini ochishi mumkin. Ular jamiyat mulki bilan ta'minlanib va jamiyat tasdiqlangan Nizom asosida ish olib boradilar.
- 18.2. Filial yoki vakolatxona rahbari jamiyat tomonidan tayinlanib va jamiyat bergan ishonchnoma asosida ish olib boradi. Filial va vakolatxona faoliyati uchun javobgarlikni jamiyat olib boradi.
- 18.3. Jamiyat filiallari va vakolatxonalari bilan bog'liq bo'lgan o'zgartirilishlar to'g'risidagi ma'dumotlar jamiyat Nizomiga o'zgartirish kiritisa, yuridik shaxslarni ro'yhatga oluvchi davlat organiga kerakli tartibda axborot beriladi.

XIX. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

- 19.1 Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasining o'Ma'xuliyati cheklangan hamda qo'shimcha ma'xuliyatli jamiyatlar to'g'risida o'gi Qonunning 49-55 moddalariga asosan amalga oshiriladi.
- 19.2 Tugatilish to'g'risidagi qaror sanasidan 30 kundan kechikmasdan yozma ravishda kreditorlarga xabar yetkaziladi.
- Kreditorlar jamiyatini o'z majburiyatlarini muddatdan oldin bajarilishini yetkazgan zararni to'ldirishni talab qilish huquqiga ega:
- * 30 kundan kechiktirmasdan kreditorga tugatilish va qayta tuzish, boshqa tashkilot bilan qo'shilish, birlashish to'g'risida yetkaziladi;
 - * 60 kundan kechiktirmasdan kreditorga ajralish yoki bo'dinish to'g'risida xabar yetkaziladi.
- Agar qayta tuzilgan jamiyatning bo'dinish balansidan huquqiy vorisni aniqlash imkoni bo'lmaganda, qayta tuzilgan jamiyat majburiyatlari bo'yicha kreditorlar oldida yangi yuridik shaxslar javobgarlikni muttanosib ravishda olib borishlari shart.
- 19.3. O'z ixtiyori bilan tugatilayotgan jamiyat ta'asischisining umumiy yig'ilishida, tugatilish to'g'risida qaror qabul qiladi va tegishli organ bilan kelishilgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.
- 19.4. Tugatilish sud qarori bilan amalga oshirilsa, tugatish komissiyasi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda tuziladi. Tugatilish komissiyasi tayinlanishi bilan jamiyatni boshqarish bo'yicha barcha ishlar uning vakolatiga o'tkaziladi. Tugatish komissiyasi jamiyat nomidan sudda ham ishtirok etishi mumkin.
- 19.5. Tugatish komissiyasi matbuot organlarida, jamiyatni tugatilishi to'g'risida e'donni, kreditorlar talabini taqdim etish tartibini, taqdim etish tartibi va muddatini bostirib chiqaradi. Tugatilish to'g'risida xabar chiqqandan keyin kreditorlar talabini taqdim qilish muddati ikki oydan kam bo'lmashligi lozim.
- Jamiyat tugatilishi e'don qilingan paytda, uning kreditorlar oldida majburiyati bo'lmasa, mol-mulki ta'asischiga o'tadi.

19.6. Tugatilish komissiyasi yozma ravishda kreditorlarga tugatish to'g'risida xabar yetkazadi, kreditorlarni aniqlash va debitor qarzlarini undirish uchun chora ko'radi.

Kreditor talabini taqdim etish muddati o'tishi bilan, tugatilish komissiyasi mavso'maro tugatilish balansini tuzadi, unda mulkning sostavi to'g'risida, kreditorlar talablari va ularni ko'rib chiqish natijasi to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatiladi. Mavso'maro tugatilish balansini davlat ro'yxatiga oluvchi organ bilan kelishilgan holda ta'xischining umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.

19.7. Agar jamiyatning pul mablag'lari kreditorlar talabini qondirish uchun kamlik qilsa, tugatilish komissiyasi uning mulkini sotishni amalga oshiradi.

Tugatish komissiyasi kreditorlarga pullarni to'lashni mavso'maro tugatish balansini, qonunchilikda o'rnatilgan tartibda navbatma navbat to'lab chiqadi.

Kreditorlar bilan hisob-kitob tugatilgandan keyin, tugatilish komissiyasi Davlat ro'yxatiga oluvchi organ roziligi bilan tugatish balansini tuzadi, balans ta'xischining umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.

Nizomda aks ettirilmagan Qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa holatlar O'zbekiston Respublikasi o'Ma'xuliyati cheklangan hamda qo'shimcha ma'xuliyatli jamiyatlar to'g'risida o'gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

TA'SISCHILARNING IMZOSI:

1. _____ : _____
2. _____ : _____

1.3. Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan moliyaviy manbalar

Moliyaviy manbalar:

- ▶ Xususiy kapital;
- ▶ Sheriklik mablag'i;
- ▶ Kredit;
- ▶ Lizing;
- ▶ Grant;
- ▶ Investitsiya.

Xususiy kapital ó jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyati davomida olgan yoki yig'gan daromadi.

Sheriklik mablag'i ó ikki yoki undan ortiq jismoniy va yuridik shaxslarning amaldagi qonunchilikga asosan o'zaro kelishuvlari asosida boshlang'ich sarmoyani shakllantirish.

Kredit ó tijorat banklari tomonidan beriladigan ba'zan foizli, ba'zan foizsiz, qaytarimlilik taminlangan mablag'laridir.

Lizing ó uzoq muddatga texnika-texnologiyalarni ijaraga olish uchun beriladigan pul mablag'lari.

Grant ó ijtimoiy loyihalarga yoki tijorat maqsadida biznesni rivojlantirish uchun, ma'dum bir ustama foiz bilan qaytarib berish sharti bilan beriladigan mablag'

Investitsiya ó biznes loyiha boshlang'ich sarmoyasining amaldagi qonunchilikga asosan chet ellik ishbilarmonlar bilan o'zaro kelishuvga asosan ma'dum bir qismini yoki to'diq shakllantirish.

Foydalanish yo'nalishlariga ko'ra mikrokreditlar:

- Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun;
- Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag'larni to'dirishga beriladi.

Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun mikrokredit yiliga 3 % stavka bo'yicha 18 oy muddatgacha (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 dekabrda 273-son Qaroriga asosan).

Mikrokredit va mikrolizinglar quyidagi hollarda berilmaydi:

- ilgari olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni to'dashga;
- tamakichilikni va alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarishni tashkil etishga;
- lotareyalar tashkil etishga berilmaydi.

Kredit turlari ó imtiyozli, tijorat, iste'mol, ipoteka krediti.

Imtiyozli kredit ó Markaziy bank tomonidan belgilangan qayta Moliyalash stavkasidan past (10 %) bo'dgan tijorat banklari tomonidan beriladigan kredit.

Tijorat kredit ó qayta Moliyalash stavkasidan yuqori bo'dgan, tijorat maqsadida beriladigan kreditlardir.

ATB o'Mikrokreditbanko tomonidan imtiyozli mikrokreditlar beriladi va mikrolizing xizmatlari ko'rsatiladi:

- Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kasb-hunar kollej bitiruvchilariga ota-onalar kafilligi ostida 18 oygacha eng kam ish haqining 50 barobarigacha, jismoniy shaxslarga eng kam ish haqining 50 barobarigacha, fermaer va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 200 barobarigacha yillik 3 % darajasida imtiyozli mikro kreditlar;
- Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun eng kam ish haqining 500 barobarigacha 24 oy o'gacha yillik 6 % darajasida imtiyozli mikro kreditlar;
- Kichik biznes sub'ektlari uchun eng kam ish haqining 200 barobarigacha 3 yillik 5 % darajada imtiyozli mikro kredit xizmatlari.

Kreditlar muddatiga ko'ra o'z uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo'linadi.

Uzoq muddatli kreditlar o'z 1 yildan oshiq muddatga beriladigan kreditlar.

Qisqa muddatli kreditlar o'z 1 yilgacha bo'lgan muddatga beriladigan kreditlar.

Yo'nalishiga ko'ra kreditlar o'z asosiy vositalarni xarid qilish uchun yoki aylanma mablag'larni to'ldirish uchun olinishi mumkin.

Ta'minot turlari

- Mol-mulkni yoki qimmatli qog'o'zni garov sifatida qo'yish;
- Bank yoki sug'urta tashkiloti kafolatnomasi;
- Uchinchi shaxslarning kafilligi;
- Sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytarmasligi xavfini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta po'lis;
- Kredit hisobiga sotib olinadigan qiymatining 80 % miqdoridagi mol-mulk ham ushbu kredit bo'yicha garov predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kredit olishda taqdim etiladigan hujjatlar to'plami:

1. Ariza o'z buyurtнома;
2. Ta'minot turlaridan biri;
3. Biznes reja naqd pul oqimi ko'rsatilgan holda;
4. Shartnoma
5. Buxgalteriya balans nuxsasi;
6. Ta'asis xujjatlari nuxsasi;
7. Joy orderi yoki shartnomasi va boshqalar.

Qarz oluvchilar mikro kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etadilar:

- Mikro kredit olish uchun buyurtmanoma;
- Biznes-reja, pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda;
- Mikro kreditning qaytarilishi ta'minlanishi bilan bog'liq xujjatlar, shu jumladan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda to'ldirilgan buxgalteriya va Moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari.

Taqdim etiladigan biznes reja mikro kredit olish uchun buyurtmanoma berilgan sanadan ko'pi bilan 60 kun oldin tuzilgan bo'lishi kerak.

Kredit beruvchi bank xodimi kredit hujjatlarini olgach va ularning toʻliqligini tekshirgach buyurtmanomani maxsus daftarda royhatdan oʻtkazadi, daftarga tartib raqami qoʻyiladi, ip oʻtkazib tikiladi, bank muassasining rahbari va bosh hisobchi imzolari hamda dumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Daftarda buyurtmanoma bergan mijozning nomi, buyurtmanoma berilgan sana, soʻralayotgan mikrokredit miqdori, mikrokredit olishning maqsadi, uni taʼminlash turi koʻrsatilishi kerak.

Buyurtmanoma royhatdan oʻtkazilgandan keyin kredit beruvchi bank xodimi keying kundan kechikmay hujjatlar paketini koʻrib chiqish uchun bank muassasining kredit komissiyasiga taqdim etiladi.

Kredit komissiyasi, shu jumladan joyiga borgan holda, qarz oluvchining kredit buyurtmanomasini va toʻlov qodirligini, shuningdek mikrokredit maqsadlarining faoliyat xarakteriga muvofiqligini oʻrganadi. Kredit paketini tahlil qilish, shuningdek qarz oluvchining kredit tarixini va uning rahbari obroʻsini baholashga asoslanadi.

Kredit tarixini baholash bank tomonidan Markaziy bankning kredit axboroti milliy institutidagi qarz oluvchi toʻgʻrisidagi mavjud maʼlumotlar asosida amalga oshiriladi.

Kredit komissiyasi buyurtmanomani koʻrib chiqqandan keyin tegishli qaror chiqaradi, qaror kredit komissiyasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Mikrokredit berish toʻgʻrisidagi ijobiy qaror kredit komissiyasi aʼzolarining kamida uchdan ikki qismi tomonidan maʼqullanishi kerak. Kredit komissiyasining ijobiy qarori asosida qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuziladi.

Ayni bir vaqtda kredit toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bankning berilgan kreditlar toʻgʻrisidagi oʻz maʼlumotlar bazasiga va kredit axboroti milliy institutiga tushadi.

Mikrokreditlash tartiblari soddalashtirilishi

Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan kichik biznes subʼektlari bankka atiga 3 ta hujjat (ariza, biznes reja, taʼminot turlaridan biri), yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan kichik biznes subʼektlari 4 ta hujjat (ariza, biznes reja, taʼminot turlaridan biri, DSI tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya balansi) taqdim etiladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan tadbirkorlarning murojaatlari 5 bank ish kunida, yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan tadbirkorlarniki esa 10 bank ish kunida koʻrib chiqiladi va tegishli xulosa beriladi.

1.4. Tadbirkorlik faoliyatining soliqqa tortilishi

Soliq turlari juda koʻp, lekin toʻgʻri soliq deb bajarilgan ish hajmiga proporsional toʻdanadigan soliqlar tushunilsa, egri soliqlarga uning narxida aksiz, yigʻim yoki boshqa koʻrinishda aks ettirgan soliqlar tushuniladi.

Toʻgʻri soliq ó tadbirkor yoki biznesmen tomonidan qilgan ish/xizmati hajmidan toʻdanadigan soliq.

Egri soliq ó mahsulotning narxida oʻtirib, aksiz yoki boshqa toʻlovlar sifatida undiriladi.

Oʻzbekistonda umumiy va soddalashtirilgan soliqlar tizimi joriy etilgan. Umumiy soliqlarni kata korxonalar vakillari toʻdashsa, soddalashtirilgan soliqlarni kichik biznes vakillari va xususiy tadbirkorlar toʻdashadi.

Soddalashtirilgan soliqlar yagona soliq va qatʼiy belgilangan soliqlarga boʻlinadi.

Savdo va umumiy ovqatlanish muassasasi (ularning ichida mikrofirma va kichik korxonalar kiradi) uchun yagona soliq to'lovi

STAVKALARI

№	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Umumiy ovqatlanish muassasalari	10
	Ulardan:	
	Maktab, internet-maktab, oliy o'quv yurtlaridagi maxsus umumiy ovqatlanish muassasalari	8
2	Chakana savdo bilan shug'ullanadigan korxonalar (4-punktida ko'rsatilganidan tashqari) quyidagicha:	
	100 ming va undan ortiq aholisi mavjud bo'lgan shaharlar:	4
	Boshqa aholi zich bo'lgan joylarda:	2
	Uzoq va tog'li tumanlarda:	1
3	Ulgurji savdo (4-punktida ko'rsatilganidan tashqari)	5
4	Ulgurji va chakana dori-darmon sotiladigan tashkilotlar, quyidagicha:	
	100 ming va undan ortiq aholisi mavjud bo'lgan shaharlar:	3
	Boshqa aholi zich bo'lgan joylarda:	2
	Uzoq va tog'li tumanlarda:	1
5	1, 2 v 4 punktlarda ko'rsatilgan tashkilotlar uchun, (ulgurji dori-darmon tashkilotlaridan tashqari), tovarlarning realizatsiyasi hajmi (ko'rsatilgan xizmatlar), plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'dovlar	Belgilangan stavka 5 %ga pasaytiriladi

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovi

STAVKALARI

№	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini, 2-11 bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	6*
2.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 %ni tashkil etadigan korxonalar	5
3.	Qishloq xo'jaligi korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha, yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno	6
4.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad olinadigan korxonalar	30
5.	Tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33
6.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	30
7.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktabrdagi PF-187-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yhatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlari bundan mustasno:	
	Sotishning umumiy hajmidan 15 %dan 30 %gacha	Belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi
	Sotishning umumiy hajmidan 30 % va undan ortiq %	Belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi
8.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalarini uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	Belgilangan stavka 5 %ga pasaytiriladi

1.5. Biznes reja to'g'risida

Tadbirkorlik biznes g'oyadan boshlanadi. Lekin biznes g'oyaning o'zi ijobiy natija beruvchi biznes uchun yetarli emas. Uning uchun aniq hisob-kitoblarga asoslangan reja tuzish kerak bo'ladi. Biznes-reja o' bu biznes g'oyani amalga oshirish maqsadida bajarish zarur bo'lgan, o'zaro muvofiqlashtirilgan xatti o' harakatlar dasturidan iborat bo'lgan hujjatdir.

Aytaylik hayolingizga juda yaxshi bir biznes g'oya keldi. Uni amalga oshirish uchun esa Sizga albatta mablag' kerak bo'ladi. Mablag'ni bankdan yoki boshqa Moliyaviy manbalardan olishingiz mumkin. Ular esa mablag'larni o'quruq'o so'zga, albatta berishmaydi. Buning uchun Siz o'z g'oyangizni qog'o'zga tushirib, hisob-kitob qilib, haqiqatdan foydali ekanligini isbotlashingiz kerak bo'ladi. Xulasa qilib aytganda biznes-reja tuzishingiz va uning muvoffaqiyatli bo'lishiga o'zingiz ishonch xosil qilishingiz lozim. Biznes-reja, avvalo tadbirkorning o'zi uchun muhimdir. Biznes-reja Sizning g'oyangizni kelajakda muvoffaqiyatli amalga oshirishda xizmat qiladigan betakror hujjat hisoblanadi.

Puxta va pishiq tuzilgan biznes-reja nafaqat kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi, balki biznesning barqarorligini kafolatlaydi.


Biznes-rejaning zaruriyati

- Biznes-rejani tuzganingizda, Siz loyihangizni turli xom-hayollarsiz, yanada tanqidiy va real tarzda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladsiz;
- Biznes-reja bu biznesda qo'llaniladigan shunday vositaki, Siz shu vositaning to'la ishlashini ta'minlash bilan birga loyihangizni muvoffaqiyatini amalga oshirishini ham ta'minlaysiz.

Biznesning maqsadi

Biz biznes-reja haqida gap boshlashimizdan oldin, biznesning maqsadi nimadan iborat ekanligini bilib olishimiz kerak.

Biznesning maqsadi odatda foydani barqaror holga keltirish va uni mutaassil oshirib borishdir. Tadbirkorning hamma o'fikrlari, harakatlari va sarf-xarajatlari aynan foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Bu foyda biznesning keying rivojlanish va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilganidir. Ya'ni:



Har qanday ishda boʻlganidek, biznesda ham muvoffaqiyat oʻz-oʻzidan kelmaydi. Uning zaminida har doim ogʻir mehnat, uddaburonlik, mohirlik, bilimdonlik va albatta tashabbus yotadi. Vaholangki, tashabbus bilan birga bu fazilatlaru-xislatlarni toʻxtovsiz kamol toptirib borish lozim boʻladi.

•Biznes, maʼlum maʼnoda birovlarining choʻntagidagi pulni zoʻrlik ishlatmay olish sanʼatidirö (Sh.Rustavelle).

Biznesning maqsadlari, vazifalari va pirovard natijalari nechogʻdik aniq belgilab olingan boʻlsa, uning xatari ham shunga yarasha kam boʻladi.

Biznes bilan shugʻullanishdan asosiy maqsad foyda olish ekan, shu maqsadga erishish uchun tadbirkor oʻz faoliyatini bozor talablariga moslashtirib rejaga soladi, xaridorlar uchun zarur va kerakli boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga, xizmatlar koʻrsatishga, xarid qilishga, sotishga, raqobatlashuvda faol qatnashishga harakat qiladi.

Biznes-rejaning uch vazifasi

Biznes-reja oʻz mohiyatiga koʻra, uch muhim vazifani bajaradi:

Birinchidan, korxonada, firma va kompaniyaning, shu bilan birga jamoa aʼzolarining asosiy maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Ikkinchidan, hisob-kitoblar, sarf va xarajatlar, biznesni tashkil qilish va yuritishning asosiy yoʻnalishlari belgilangan gʻoya yoki birlamchi loyihaning amaliy harakat dasturi shakliga keltirilgan hujjat.

Uchinchidan, biznes-reja Moliyalashtirish, kredit resurslaridan foydalanish, shuningdek, sarmoyador sheriklarni hamkorlikka jalb etish.

Tajribali mutaxassislarning bildirgan fikriga koʻra, biznes-reja qator savollarga javob berishi lozim.

Bular quyidagilar:

- Biznes-reja boshlangʻich gʻoya va loyihasining oʻziga xosligi nimada?
- Unda koʻzda tutilgan mahsulot yoki xizmatga ehtiyoj sezgan va isteʼmolchilar pul toʻlashga tayyormi-yoʻqmi;
- Ishni boshlash uchun (boshlangʻich) va rivojlantirish uchun (istiqbolda) qancha mablagʻ kerak boʻladi;
- Ushbu biznesning kengayishi va rivojlanish imkoniyatlari qanday?
- Biznes jarayonida qanday obʼyektiv va subʼyektiv qiyinchiliklar tugʻilishi mumkin?
- Ushbu qiyinchiliklarni yengishning imkoniyatlari;
- Bozor holati: raqobatchilar, hamkorlar, sheriklar taʼsiri qay darajada;
- Jamoa aʼzolari, mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati qanday?

Shuningdek, biznes-rejaga barcha daromad manbalari va xarajatlar, korxonada qancha va qachon foyda keltira boshlashi kutilmoqda kabi hisob-kitoblarni oʻz ichiga olgan boʻlimlarni kiritish lozim.

Biznes-rejada nimalar bo'limasligi kerak?

- Mavjud mahsulot va xizmatlar tavsifi;
- Aslida jamoaga kirmaydigan oboshqaruv jamoasi aʼzolari;
- o'raqobat yoʻq, o'xshashi yoʻq mahsulot (xizmat)o, o'ulkan bozorö, o'amalga oshirish osonö kabi iboralar;
- Goyangizni har qanday holatda va bahoda sotib olish mumkinligi haqida rejalar;
- Asoschilar, boshqaruv kengashi aʼzolari haqida soxta tarjimai hol va maʼlumotlar;
- Moliyalashtirishga vaöda berilgan yoki muhokama qilinmoqda kabi iboralar;
- Faqat yillar bo'yicha ko'rsatilgan Moliyaviy prognozlar;
- Bozorning yetarli chuqur bo'dmagan taxminiy tahlili;
- Chamalab hisoblangan operatsion xarajatlar;
- Cheksiz darajada yuqoriga qarab ketgan foydalar haqidagi rejalar;
- Ishonchliligi yetarli tekshirilmagan hamkorlar.

Tadbirkor öz faoliyatini boshlashdan oldin yo'dga qo'ymoqchi bo'dgan biznes turini foydali yoki zararli, faoliyat davrlarini, xarajat, foydalarini texnik marketini tuzib oladi. Bu market ö **BIZNES REJA** deyiladi. Kredit olish maqsadida bankka murojaat qilgan vaqtda ham albatta biznes reja taqdim etish kerak.

Xo'sh, Siz agar biznes-rejani o'zingiz tuzmoqchi bo'dsangiz unda nimalar aks etishi lozimligi hususida to'xtalamiz.

Biznes-rejaning tarkibiy qismlari

- Biznes tavsifi;
- Biznes maqsadi (missiyasi);
- Biznesning yuridik maqomi;
- Ishlab chiqarish jarayoni tavsifi;
- Marketing;
- Moliyalashtirish rejasi;
- Xodimlar bilan ishlash rejasi;
- Ish rejasi (rejasi);
- Xulosa.

Biznes tavsifi

- O'z biznes goyangizni yozing
- Siz tomondan taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat turi haqida maʼlumot bering

- Fikrlaringizni aniq maʼlumotlar asosida bayon qiling.

Biznes maqsadi

- Siz kimning talablarini qondirishga urinyabsiz?
- Siz mijozlaringizning qaysi extiyojlarini qondirmoqchisiz?
- Siz ushbu talablarni qanday qondirmoqchisiz?

Biznesning yuridik maqomi

- Qaysi shaklda biznesingizni roʻyhatdan oʻtkazasiz?
- Ushbu yuridik maqomni tanlashingizni sababi nimada?

Ishlab chiqarish jarayonini tavsifi

- Siz nima ishlab chiqarasiz yoki qanday xizmat koʻrsatasiz?
- Ushbu jarayon qanday amalga oshadi?
- Ishlab chiqarishning (xizmatiningizning) har bir bosqichini qisqacha bayon qiling.

Marketing

- Siz qanday mahsulot ishlab chiqarasiz?
- Uning oʻziga xos xususiyatlari?
- Sizning segmentlaringiz kimlar?
- Bozordagi ulushingiz qanday?
- Narx qoʻyish qaysi tizimiga asoslangan?
- Sotish kanalningiz?
- Qanday reklamadan foydalanasiz?
- Mijozlarga qanday qoʻshimcha xizmat koʻrsatish turlarini taklif etasiz?
- Raqobatchilar tahlili.

Moliyalashtirish rejasi

- Sotuvdan tushgan tushum hajmi qancha?
- Moliyaviy natijalar hisobi.

Xodimlar

- Biznesni muvoffaqiyatli olib borish uchun rahbar xodim boshqarishning baʼzi tamoyillarini bilishi kerak
- Koʻp soxalarda biznes muvoffaqiyati xodimlarga bogʻliq
- Korxonada oʻz ishi va sharoitidan qoniqadigan ishchilar faoliyat koʻrsatishlari kerak.

Xulosa

Yuqoridagi barcha savollarga javob berib chiqsangizgina Sizning biznes rejangiz foyda yoki zarar keltirishini bilib olasiz va biznesni yoʻlga qoʻyasiz.

Shuningdek, xulosa qismida biznes rejadagi bacha hisob-kitoblarning yakuni boʻyicha aniq misollar keltiring va keltirilgan misollar Sizning rejangizni oʻzini toʻdiq oqlashini, har qanday muammoli holatlar yuz berishi mumkinligiga qaramasdan loyihangizni amalga oshirish uchun

ajratiladigan bank krediti foizlari bilan oʻz vaqtida qaytarilishini taʼminlay olishingizni koʻrsating. Bu bankning kredit komissiyasidan ijobiy xulosa olishingiz uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, xulosa yozishda shoshilmang. Shuni ham yodda tutingki, koʻpgina investorlar loyihaning moliyaviy rejasi, daromadlar shakllanishi qismiga va albatta xulosada bayon etilgan fikrlarga ahamiyat qaratadi. Xulosani shunday yozingki, har qanday investor uni oʻqiyotganda bevosita Siz amalga oshirmoqchi boʻlgan biznes rejangizning asl mazmun-mohiyatini his etsin, uning qanchalik yuqori daromad keltirishiga amin boʻlsin. Faqat shundagina Siz investorlardan kutayotgan oliyaviy manbaga ega boʻlishingiz mumkin.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tadbirkorlik faoliyatiga taʼrif bering.
2. Kichik tadbirkorlik subʼektlariga misollar keltiring.
3. Kichik biznesni roʻyhatdan oʻtkazish qanday bosqichlardan iborat?
4. Xususiy korxonaga taʼrif bering.
5. Ochiq aksiyadorlik va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari oʻrtasidagi farqlar nimalardan iborat?
6. Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan moliyaviy manbalarni sanab oʻting hamda ularga taʼrif bering.
7. Mikrocredit va mikrolizinglar qanday hollarda berilmaydi?
8. Kredit olishda foydalaniladigan taʼminot turlarini sanab bering.
9. Biznes rejada nimalar boʻlmasligi kerak?
10. Biznes rejaning tarkibiy qismlarini sanab bering.

**INTERNET VA KOMPYUTER XIZMATINI
TASHKIL ETISH BO'YICHA**

BIZNES REJA

Kredit oluvchi haqida qisqacha ma'lumot

“_____ ö xususiy firmasi Sherobod tuman hokimining 20__-yil _____dagi _____-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tgan va nizomi tasdiqlangan.

Kredit oluvchi ö_____ö xususiy firmasi rahbari _____
_____ 19__ yil _____ oyida tug'algan bo'lib, pasport seriyasi _____, Sherobod tuman IIB tomonidan _____ yilda berilgan. Bugingi kunda kredit oluvchi Termiz davlat universteti Iqtisodiyot fakulteti _____ bosqich talabasi. Yashash manzili Sherobod tumani _____ ko'chasi _____ uy.

ö_____ö xususiy firmasi ishlab chiqarishga asoslangan bo'lib 4 ta ishchi bilan faoliyat yuritadi.

Telefonlar: 8(376) _____-____-____

Mobil: +9989 _____

Elektron pochta: _____@mail.ru

Tashkiliy reja

ö_____ö internet klubi aholiga internet xizmatlarining eng qulay turlarini taklif etadi. Ya'ni, 512 kb/s internet tezligi, har bitta komputerdan internet orqali muloqot qilish uchun zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi va boshqalar.

Klubning maqsadi: aholining internet savodxonligini yanada oshirish, hamda o'quvchi va talabalarning ilm olishlaridagi internet imkoniyatlarini kengaytirish.

Bozor tahlili

Klub binosi Sherobod tumani _____ko'chasida, dehqon bozori, kasb-hunar koleji hamda maktabga yaqin joylashgan. Bu hududda faqat bitta internet klubi mavjud. Bizning internet klubimiz bu internet klubidan ko'pgina afzalliklari bilan farq qilib, foydalanuvchilar uchun internet xizmatidan foydalanishning eng zamonaviy imkoniyatlarini yaratib beradi. Unda 512 kb/s internet tezligi bilan xizmat qiluvchi 10 komputerdan mavjud bo'ladi. Shuningdek, yozda salqin va qishda issiq havo sharoiti yaratiladi. Bu klubning avzalliklaridan yana biri esa yuqorida to'xtalib o'tilgan o'quv yurti o'quvchilari klub ularning o'qish binosiga yaqin joylashganligi sababli o'zlarining yo'l xarajatlarini va qimmatli vaqtlarini tejashga erishadilar.

Olingan kredit hisobidan quyidagilarni xarid qilish mo'ljallanmoqda:

Olinadigan jihozlar turi:	Dona	Bahosi (so'm)	Jami summa (so'm)	Muddat
Kompyuter (komplekt)	11	1.400.000	15.400.000	3 yil
Kompyuter stoli va kursi	11	140.000	1.540.000	
Modem	1	70.000	70.000	
Hap (modem uchun)	1	90.000	90.000	
Konditsioner	1	1.200.000	1.200.000	
Printer (3v1)	1	700.000	700.000	
Jami:			19.000.000	

Ish haqi fondi (so'mda)

Ishchi o'rin (kishi)	Ish haqi				Jami summa:
	<i>1 oylik</i>	<i>1 yillik</i>	<i>2 yillik</i>	<i>3 yillik</i>	
1	200.000	2.400.000	2.400.000	2.400.000	7.200.000

Xizmat ko'rsatish rejasi

